

## «TV Doimiy» tariflar tizimi

### Narxlash

| Tarif rejasining nomi                                         | TV Doimiy 55                                        | TV Doimiy 70                                            | TV Doimiy 90                                            | TV Doimiy 120                                | TV Doimiy 180                                |
|---------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|----------------------------------------------|----------------------------------------------|
| Oylik abonent to'lovi                                         | 55 000 so'm                                         | 70 000 so'm                                             | 90 000 so'm                                             | 120 000 so'm                                 | 180 000 so'm                                 |
| Cheksiz* oylik internet-trafik                                | -                                                   | -                                                       | -                                                       | YouTube Telegram WhatsApp Facebook Instagram | YouTube Telegram WhatsApp Facebook Instagram |
| Cheksiz* oylik internet-trafik                                | OVVA TV                                             | OVVA TV                                                 | OVVA TV+                                                | OVVA TV+                                     | OVVA TVMAX                                   |
| Oylik internet-trafik limiti                                  | 24 GB, 12 GB Facebook va Instagram uchun            | 44 GB, 22 GB Telegram WhatsApp Facebook Instagram uchun | 80 GB, 40 GB Telegram WhatsApp Facebook Instagram uchun | 200 GB                                       | 400 GB                                       |
| 5G tarmog'ida oylik internet-trafik                           | -                                                   | 25 GB                                                   | 45 GB                                                   | 250 GB                                       | 450 GB                                       |
| O'zbekiston bo'yicha chiquvchi qo'ng'iroqlar ing oylik limiti | Cheksiz**                                           | Cheksiz**                                               | Cheksiz**                                               | Cheksiz**                                    | Cheksiz**                                    |
| O'zbekiston bo'yicha chiquvchi SMSlarning oylik limiti        | 1000                                                | 1500                                                    | 2000                                                    | 2 500                                        | 3 000                                        |
| Limitlarni tekshirish                                         | *100# - daqiqalar va SMSlar, internet-trafik MBlari |                                                         |                                                         |                                              |                                              |

| Yoʻnalishlar boʻyicha narxlash:                                                                               |              |                                                             |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------|-------------------------------------------------------------|
|                                                                                                               | TV Doimiy 55 | TV Doimiy 70, TV Doimiy 90,<br>TV Doimiy 120, TV Doimiy 180 |
| Tarmoq ichidagi va tarmoqdan tashqari qoʻngʻiroqlar uchun chiquvchi daqiqa narxi (berilgan limitdan tashqari) | 50 soʻm      | 25 soʻm                                                     |
| 1 MB internet narxi                                                                                           | 50 soʻm      | 25 soʻm                                                     |
| Oʻzbekiston boʻyicha chiquvchi SMS narxi (berilgan limitdan tashqari)                                         | 50 soʻm      | 25 soʻm                                                     |
| Xalqaro SMSlar                                                                                                | 1500 soʻm    |                                                             |

Tarifga oʻtish: \*120#

Limitlarni tekshirish: \*100# - daqiqalar, SMSlar va internet-trafik MBlari.

### Qoʻshimcha maʼlumot

1. Tarif rejaları yangi ulanishlar hamda Prepaid tizimi abonentlari oʻtishlari (USSD \*120#) uchun ochiq.
2. Oylik abonent toʻlovining yechilishi va limitlarning belgilanishi:  
- Abonentning tarif rejasiga ulanish/oʻtish sanasi oylik davrda oylik abonent toʻlovining yechilish sanasi hisoblanadi.

- Tarif rejasiga yangi ulanishda/o'tishda, agar abonent hisobida yetarlicha mablag' bo'lsa, oylik abonent to'lovi va limitlar to'liq hajmda (qolgan kunlar uchungina emas) yechiladi va belgilanadi.
- Hisob manfiy holatda bo'lsa yoki unda tarif bo'yicha oylik abonent to'lovining yechilishi uchun mablag' yetarli bo'lmasa, u holda abonent to'lovi yechilmaydi, tarifda belgilangan limitlar belgilanmaydi, abonent raqamining hisobi qarzga kirmaydi.
- Oylik abonent to'lovi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilgan kundan boshlab oyiga bir martalik oraliqda yechiladi. Oylik abonent to'lovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovining so'nggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi. - Tarif rejasi doirasida navbatdagi oylik abonent to'lovining yechilishi hamda limitlarning belgilanishi soat 00:00 dan 08:00 gacha bo'lgan davrda (yechilish vaqti qat'iy belgilanmagan) amalga oshadi. Oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun abonent hisobida yetarli miqdorda mablag' bo'lishi kerak.
- Oylik abonent to'lovi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilgan kundan boshlab oyiga bir martalik oraliqda yechiladi. Oylik abonent to'lovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovining so'nggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi (agar oylik abonent to'lovining yechilishi 31-sanada amalga oshgan bo'lsa, keyingi oy esa 30 kunlik bo'lsa, u holda navbatdagi oylik abonent to'lovi 30-sanada, fevral oyining 28/29-sanasida yechiladi. Tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi o'z vaqtida to'lansa (raqam uzluksiz Faol holatda bo'lib tursa), abonent to'lovining keyingi yechilish sanasi oyning 31-kuni bo'ladi).
- Agar oylik abonent to'lovining yechilish paytida abonent hisobida oylik abonent to'lovi qiymatidan kam mablag' qolgan bo'lsa, u holda abonent raqami bloklanadi. Toki hisobda abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lmagunicha abonent to'lovi yechilmaydi.
- Abonent hisobi abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirilishi bilan oylik abonent to'lovi **darhol** yechiladi. Abonent to'lovi yechilishi bilan abonent raqami Faol holatga o'tadi va tarif rejasi shartlariga muvofiq limitlar belgilanadi. Keyin oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi, ya'ni, tarif rejasi bo'yicha navbatdagi oylik abonent to'lovining yechilishi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi **so'nggi marta samarali yechilgan kundan boshlab** bir oylik oraliqda amalga oshadi.

### 3. 5G tarmog'idagi qo'shimcha internet-trafik hajmining shartlari:

- Tarif rejasi doirasida berilgan 5G internet-trafik hajmi 5G tarmog'ida amal qiladi va sarflanadi;
- 5G hajmi to'liq sarflab tugatilsa, 5G tarmog'idagi internet tarif rejasining amaldagi shartlariga muvofiq narxlanadi;
- Tarif rejasini almashtirganda 5G internet-trafik hajmi bekor qilinadi. "TV Doimiy" tariflar tizimi ichidagi boshqa tarifga ("TV Doimiy 70", "TV Doimiy 90", "TV Doimiy 120", "TV Doimiy 180") o'tishda 5G internet-trafik hajmi bekor qilinadi va tarif rejasiga mos yangi internet-trafik hajmi belgilanadi;
- Internet-trafik shartlari roumingdagi abonentlarga tatbiq etilmaydi;
- Qo'shimcha 5G internet-trafik hajmi taqdim etilishi munosabati bilan, "5G" xizmati "TV Doimiy 70", "TV Doimiy 90", "TV Doimiy 120", "TV Doimiy 180" tariflarida avtomatik tarzda taqdim qilinadi;
- 5G internet-trafik hajmi raqam Bloklangan holatda amal qilmaydi;
- Smartfonning yoki boshqa qurilmalarning ulanish nuqtasi orqali internetni tarqatishda, faqat internetdagi so'rovlar katta hajmdagi ma'lumot almashishni hamda internetning yuqori tezligini talab qilgan hollardagina, berilgan 5G internet hajmidan foydalanish mumkin bo'ladi.
- Proksi-serverlar yoki VPN orqali ulanishda, internet-trafik berilgan 5G hajmi doirasida sarflanmaydi.

### **Muhim!**

Standart holatga ko'ra, 5G tarmog'idagi qurilmalar avtomatik tarzda barqarorroq bo'lgan 4G LTE tarmog'iga qaytishi mumkin va, mos tarzda, bunda internet-trafik 5G limitlarini sarflamaydi.

Masalan, quyidagi vaziyatlarda shunaqa bo'lishi mumkin:

- internetdagi so'rovlar TV hajmdagi ma'lumot almashishni hamda internetning yuqori tezligini talab qilmasa;
- abonent 5G tarmog'ining qamrov hududini tark etsa yoki signal sifati barqaror ishlash uchun yetarli bo'lmay qolsa;
- 5G rejimida qurilmalar dastlabki bog'lanish va boshqarishni yo'lga qo'yish (signallashtirish) uchun 4G LTE tarmog'idan foydalanadi, keyin esa ma'lumot almashish uchun 5G tarmog'iga o'tadi.

Bunday holatlarda, 5G NSA texnologiyasi xususiyatlaridan kelib chiqib, internet-trafik sarfi to'g'ri deb hisoblanadi va Kompaniya tomonidan korrektirovkalash amalga oshirilmaydi.

**4. YouTube, Telegram, WhatsApp, Facebook, Instagram resurslari uchun taqdim etiluvchi internet-trafik shartlari:**

- Tarif rejasini almashtirganda, cheksiz internet-trafikka ega bo'lgan tegishli yo'nalish belgilanadi:

| <b>Tarif</b>  | <b>Cheksiz internet-trafik (resurslar)</b>         |
|---------------|----------------------------------------------------|
| TV Doimiy 120 | YouTube, Telegram, WhatsApp, Instagram va Facebook |
| TV Doimiy 180 | YouTube, Telegram, WhatsApp, Instagram va Facebook |

- Tarif rejasi doirasidagi resurslar uchun taqdim etiluvchi internet-trafik shartlari roumingdagi abonentlarga tatbiq etilmaydi;
- Tarif rejasi doirasidagi resurslar uchun taqdim etiluvchi internet-trafik shartlari Postpaid tizimi abonentlariga tatbiq etilmaydi;
- Tarif bo'yicha taqdim etiluvchi resurslar (internet-trafik) doirasidagi trafik Facebook, Instagram, Telegram, WhatsApp va YouTube mobil ilovalarining yuklab olinishiga va yangilanishiga tatbiq etilmaydi;
- Telegram, Instagram va WhatsApp ilovasi orqali audio/videoqo'ng'iroq qilganda tarif bo'yicha yo'nalishlar doirasida taqdim etiluvchi resurslar (internet-trafik) emas, balki tarif rejasida berilgan umumiy limit yoki internet-to'plamlar doirasidagi internet-trafik sarflanadi;
- Facebook Messenger ilovasi orqali audio/videoqo'ng'iroq qilganda tarif bo'yicha yo'nalishlar doirasida taqdim etiluvchi resurslar (internet-trafik) emas, balki tarif rejasida berilgan umumiy limit yoki internet to'plamlar doirasidagi internet-trafik sarflanadi;
- «TV Doimiy» tizimi tarif rejalaridan «Internet 60» tarifga o'tilsa, tarif rejasi bo'yicha belgilangan resurslar (internet-trafik opsiyasi) o'chiriladi;

**4.1. “Ucell TV” uchun cheksiz internet-trafik shartlari:**

- “TV Doimiy” tarif rejalariga o'tishda, standart holatga ko'ra “Ucell TV” xizmati doirasida quyidagi obunalardan foydalanish imkoni taqdim etiladi:

| <b>Tarif rejasi</b>         | <b>Tarif rejasi ushbu obunani o'z ichiga oladi</b> |
|-----------------------------|----------------------------------------------------|
| TV Doimiy 55, TV Doimiy 70  | “Ucell TV” obunasi                                 |
| TV Doimiy 90, TV Doimiy 120 | “Ucell TV+” obunasi                                |
| TV Doimiy 180               | “Ucell TV MAX” obunasi                             |

- Agar tarif bo'yicha abonent to'lovi yechilmagan bo'lsa, u holda “Ucell TV” xizmati doirasidagi tegishli TV-kanallarni tomosha qilish imkoni cheklanadi.
- “Ucell TV” xizmati faqat O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladi.
- “Ucell TV” xizmati Ucell uyali aloqa tarmog'i interneti orqali ham, istalgan boshqa operator yoki internet-provayder tarmog'ida ham, shuningdek istalgan Wi-Fi tarmog'i orqali ham ishlaydi. Boshqa operator yoki internet-provayderning internet-trafigi uchun to'lov ularning shartlariga muvofiq hisoblanadi.
- “Ucell TV” xizmatidan proksi-server, VPN yoki uchinchi sayt orqali foydalanishda, trafik tarif rejasidagi Ucell-Internet narxiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yo'nalishlar uchun taqdim etiladigan internet-to'plam balansidan sarflanadi. □ Xizmat doirasidagi TV-kanallarni onlayn tomosha qilish uchun internet tarmog'iga ulanish kerak bo'ladi.
- Standart holatga ko'ra “Ucell TV” xizmati doirasidagi tegishli TV-kanallarni tomosha qilish imkoni taqdim etilishi munosabati bilan, “TV Doimiy” tariflarida quyidagi TV-kanallarni ko'rish imkonini beruvchi pullik obunalarni alohida xarid qilish cheklangan:

| <b>Tarif rejasi</b>         | <b>Ulanib bo'lmaydigan pullik obunalar</b>                |
|-----------------------------|-----------------------------------------------------------|
| TV Doimiy 55, TV Doimiy 70  | “Ucell TV” obunalarining barcha turlari                   |
| TV Doimiy 90, TV Doimiy 120 | “Ucell TV” hamda “Ucell TV+” obunalarining barcha turlari |

|               |                                                                      |
|---------------|----------------------------------------------------------------------|
| TV Doimiy 180 | “Ucell TV”, “Ucell TV+”, “Ucell TV MAX” obunalarining barcha turlari |
|---------------|----------------------------------------------------------------------|

- Tarif bo'yicha abonent to'lovi to'langan bo'lsa, TV-kanallarni onlayn tomosha qilish imkoni Ucell va OVVA ilovalarida, shuningdek ovva.uz saytida taqdim etiladi.
- “Ucell TV” xizmatining taqdim etilish shartlari bilan [bu yerda](#) tanishish mumkin.

##### 5. Bloklanish shartlari:

- **JONLI NOL!** Nol hisobda barcha aloqa xizmatlari amal qiladi \*\*\*

- Raqam musbat hisob holatida, agar tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi yechilishi paytida hisobda yetarlicha mablag' bo'lmasa, shuningdek manfiy hisob holatida, agar tegishli qo'shimcha xizmatlar ulangan bo'lsa bloklanadi; - Bloklangan holatda tarif rejasini almashtirish imkoni bo'lmaydi;

- Agar abonent hisobida boshqa ochiq tarif rejasining abonent to'lovini + o'tish qiymatini (agar tarif rejasiga o'tish pullik bo'lsa) yechishga yetarli mablag' bo'lsa, tarif rejasini ruxsat etilgan barcha usullar orqali almashtirish mumkin.

- Bloklangan holatda abonent oldin xarid qilingan oylik internet-to'plamlar limitlarining qoldiqlaridan, toki ularning amal qilish muddati tugaguniga qadar foydalana oladi (qoldiq mavjud bo'lsa);

- Bloklangan holatda bo'lishning umumiy shartlari bilan [bu yerda](#) tanishish mumkin.

(\*\*\*abonent to'lovi samarali yechilganidan so'ng )

**6. Tarif rejasi doirasidagi oylik limitlar joriy davr uchun tarif bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilganidan keyingina belgilanadi.** Tarif rejasi shartlariga ko'ra oylik limitlar belgilangan kundan boshlab 1 oy muddatga taqdim etiladi.

- Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun, albatta oldindan hisobni oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirishni va tarif rejasi bo'yicha limitlar belgilanganligini \*100# USSD-so'rovi yordamida tekshirib olishni tavsiya etamiz.

- Tarif rejasi doirasidagi oylik limitlar sarflab tugatilgach, qo'ng'iroqlar va SMSlar tarif rejasi shartlariga ko'ra yo'nalishlar bo'yicha limitdan tashqari qiymatiga muvofiq narxlanadi.

- Tarif rejasi va qo'shimcha internet-to'plamlar doirasidagi barcha yo'nalishlar uchun berilgan oylik internet-trafik limitlari sarflab tugatilgach, internetga kirish imkoni to'xtatiladi. Bu holatda abonent internetni qayta ishga tushirish uchun havolalik SMS oladi. Internetdan foydalanishni davom ettirish uchun, abonent quyidagi opsiyalardan birini tanlashi va unga muvofiq internetdan foydalanishda davom etishi lozim bo'ladi: Tarif bo'yicha limitlarni yangilash («Restart» xizmatini faollashtirish);

- Internet-to'plam xarid qilish;

- 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish\*\*\*\* □ Tarif rejasini o'zgartirish.

\*\*\*\* Agar abonent 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish opsiyasini tanlasa, keyin Oylik internet-to'plam xarid qilsa, u holda qo'shimcha to'plam limitlari tugaganidan so'ng toki tarif bo'yicha abonent to'lovining navbatdagi yechilishiga qadar internet tarif rejasi shartlariga muvofiq 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha narxlanadi.

**«1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish» opsiyasini abonent \*727# USSD-so'rovi yordamida mustaqil tarzda ham tanlashi mumkin.**

**Internetga kirish cheklangan holatida to'lov ilovalaridan offline rejimida foydalanmoqchi bo'lsa, ularning to'g'ri ishlashi uchun abonent o'z qurilmasida ma'lumot uzatish rejimini o'chirishi lozim.**

##### E'tibor qiling:

- «TV Doimiy» tariflar tizimi ichidagi o'tishlarda, agar abonent yuqoriroq tarifga o'tsa, u holda oldingi tarif rejasiga ko'ra avval belgilangan limitlar yangilariga qo'shiladi va toki sarflab tugatilguniga qadar yoki ularning oldingi tarif rejasiga ko'ra amal qilish muddati tugaguniga qadar ulardan foydalanish mumkin bo'ladi.

- «TV Doimiy» tariflar tizimi ichidagi o'tishlarda, agar abonent quyiyoq tarifga o'tsa, u holda oldingi tarif rejasiga ko'ra avval belgilangan limitlar bekor qilinadi.

- Boshqa tarif rejalaridan "TV Doimiy" tariflar tizimi tarif rejalariga o'tilsa oldingi tarif rejasiga ko'ra avval belgilangan limitlar bekor qilinadi. - Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun tarif rejasi doirasidagi limitlardan foydalanishdan avval \*100#, USSD-so'rovi yoki Ucell mobil ilovasi yordamida limitlar belgilanganligini albatta oldindan tekshirib olishni so'raymiz. Daqiqalar, SMSlar va MBlar limitlari belgilanganiga qadar narxlash limitdan tashqari ko'rsatilgan narxlarda amalga oshiriladi.

7. Tarif rejaları shartlariga ko'ra taqdim etilgan daqiqalar "O'zbektelekom" AKning axborot-ma'lumot xizmatlariga, kontent-provayderlarning axborot-ko'ngilochar xizmatlariga va xalqaro yo'nalishlardagi qo'ng'iroqlarga sarflanmaydi.

7.1 "O'zbektelekom" AK xizmatlari. Narxlash ushbu havoladagi jadvalda ko'rsatilgan narxlar asosida, har bir ulanish uchun amalga oshiriladi: [https://ucell.uz/ru/services/jsc\\_uzbektelecom](https://ucell.uz/ru/services/jsc_uzbektelecom), (limitlar bo'lsa, limitlar sarflanmaydi. Tarif rejasi shartlariga muvofiq limitdan tashqari narx bo'yicha abonent balansidan yechiladi). Qo'ng'iroqning bir daqiqasi sizning tarif rejangizga muvofiq daqiqalab, ulanishning 1-soniyasidan boshlab, to'liq daqiqagacha yaxlitlanib narxlanadi. Abonentlar bu yerda tanishishlari mumkin [https://ucell.uz/ru/services/jsc\\_uzbektelecom](https://ucell.uz/ru/services/jsc_uzbektelecom).

8. Tarif rejaları doirasida taqdim etilgan limitlar roumingdagi abonentlar uchun amal qilmaydi.

9. « TV Doimiy» tariflar tizimi abonentlari uchun, «Raqamni saqlab qolish», Yangi internet-to'plamlar, Metroda Ucell cheksiz internet-to'plamlari (faqat «Cheksiz 30 kun» to'plami), «Tungi internet-to'plamlar», Tunda 4Gni sinab ko'ring, TAS-IX uchun internet-to'plamlar, «Internet Mega BOOM», «Al Chiroq» (faqat MB va SMS to'plamlar) aksiyasi, «Trafik +» amal qiladi.

10. « TV Doimiy» tariflar tizimi abonentlari uchun «Tungi internet», «Kunlik SMS-to'plamlar» xizmati, Kunlik va Haftalik internet-to'plamlar, Oylik 4G internet-to'plamlar (shuningdek, "Qadrdonlar!" sodiqlik dasturi doirasidagi to'plamlar) «Soatbay internet», «Maksimal internet», "Qadrdonlar!" sodiqlik dasturi hamda U+ xizmatlari, «Buyurtma to'plam», «Megabaytlar qaytadi», «Tarmoq ichida qulay» hamda «O'zbekiston bo'yicha qulay» to'plamlari, «Qulay daqiqalar» amal qilmaydi.

11. "TV Doimiy" tariflar tizimiga o'tganda, unda ruxsat etilmagan xizmatlar va to'plamlar o'chiriladi (Oylik internet-to'plamlardan tashqari), ammo limitlar qoldiqlari va xizmatlarning amal qilish muddati ularning shartlariga muvofiq saqlanib qoladi;

## 12. 31.12.2026 gacha:

- « TV Doimiy» tizimi tarif rejalariga yangi ulanishda yoki boshqa tariflardan o'tishda, «Sizga qo'ng'iroq qilishdi» xizmati avtomatik tarzda bepul asosda taqdim etiladi;□
- «Sizga qo'ng'iroq qilishdi» xizmatiga (oylik va kunlik opsiyada) oldin pulli asosda ulangan abonentlarga mazkur xizmat endi bepul belgilanadi;□
- Xizmatni boshqarish \*977# USSD-so'rovi yordamida amalga oshiriladi;□
- «Sizga qo'ng'iroq qilishdi» xizmatining faol pulli (oylik va kunlik) opsiyalari, «Barcha uchun ovozli pochta» xizmati o'chiriladi va bepul asosda «Sizga qo'ng'iroq qilishdi» xizmati belgilanadi.□

## 13. "Traffic+" xizmati bo'yicha mavjud bo'lmagan to'plamlar:

-«Trafik+» xizmati bo'yicha «Instagram», «Instagram+YouTube+Telegram», «Ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Facebook, V Kontakte)» hamda «Instagram+YouTube+Telegram+PUBG Mobile» to'plamlariga **TV Doimiy 55** tarif rejalarida ulanib bo'lmaydi.

-«Trafik+» xizmati bo'yicha «Instagram», «Instagram+YouTube+Telegram», «Ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Facebook, V Kontakte)», «Instagram+YouTube+Telegram+PUBG Mobile», «Messenjerlar (Telegram, IMO, WhatsApp, Viber)», «YouTube + Telegram» hamda «YouTube+Telegram+PUBG Mobile» to'plamlariga **TV Doimiy 70, TV Doimiy 90** tarif rejasida ulanib bo'lmaydi.

-«Trafik+» xizmati bo'yicha «Instagram», «Instagram+YouTube+Telegram», «Ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Facebook, V Kontakte)», «Instagram+YouTube+Telegram+PUBG Mobile», «Messenjerlar (Telegram, IMO, WhatsApp, Viber)», «YouTube + Telegram», «YouTube+Telegram+PUBG Mobile» hamda «YouTube» to'plamlariga **TV Doimiy 120 va TV Doimiy 180** tarif rejalarida ulanib bo'lmaydi.

-«Trafik+» xizmati bo'yicha to'plamlar amal qilmaydigan « TV Doimiy» tariflar tizimiga o'tilsa, ushbu xizmat bo'yicha to'plam o'chiriladi, limitlar bekor qilinadi.

14. Ucell TV taqdim etish shartlari. Trafik sarf qilmaydi. Boshqa tarif rejalariga o'tishda Ucell TV opsiyasi bekor qilinadi

15. «TV Doimiy» tariflar tizimi ichidagi o'tishlarda, ko'rsatilgan shartlarga ega bo'lgan tarif rejaları doirasida oldin olingan O'zbekiston bo'yicha cheksiz daqiqalar va cheksiz internet amal qilmaydi.
16. Tegishli tarif rejaları doirasida olingan cheksiz shartlar (qo'ng'iroqlar, internet) tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovining o'z vaqtida yechilishi holatida, shuningdek, tarif rejasini almashtirganda keyingi oyga ko'chirib o'tkazilmaydi.
17. Tegishli tarif rejaları doirasida olingan ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar uchun oylik internet-trafik limitlari tarif rejasini almashtirganda keyingi oyga ko'chirib o'tkazilmaydi.
18. Internet xizmatlaridan foydalanuvchi abonentlarga [mablag'larni rezervatsiya qilish tizimi](#) va [4G tarmog'ining ishlash xususiyati haqida qo'shimcha ma'lumot](#) bilan tanishib chiqishni tavsiya qilamiz.
19. Frod ulanishlarning oldini olish maqsadida, agar ulanishdan keyingi 30 kun davomida chiquvchi trafik 0 ga yaqin bo'lsa, Kompaniya abonent bilan Shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

### **«Restart» xizmatining shartlari**

1. «Restart» xizmati \*222# USSD-so'rovi yordamida faollashtiriladi.
2. «Restart» xizmatidan raqami Faol holatda bo'lgan abonentlar foydalana oladilar.
3. «Restart» xizmati abonentga mustaqil tarzda oylik abonent to'lovining yechilishini tashkillashtirish hamda tarif rejasi shartlari bo'yicha oylik limitlarni olish imkonini taqdim etadi. «Restart» xizmati samarali faollashtirilganidan so'ng abonentning oylik davri mazkur xizmatning so'nggi marta samarali faollashtirish sanasiga muvofiq yangilanadi.
4. «Restart» xizmatini faollashtirganidan so'ng abonent hisobidan to'liq qiymatda oylik abonent to'lovi yechiladi va abonentning tarif rejasi oylik abonent to'lovi doirasida to'liq oylik limit belgilanadi. Keyin, abonentda oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi.
5. Xizmatni faollashtirish uchun abonent hisobida oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lishi lozim. «Restart» xizmatini faollashtirganidan so'ng tarif bo'yicha abonent to'lovi yechiladi va to'liq hajmda limitlar belgilanadi.
6. «Restart» xizmati muvaffaqiyatli faollashganida, tarif rejasi doirasida oldin belgilangan limitlar (O'zbekiston bo'yicha daqiqalar va MBlar) qoldiqlari bekor qilinadi.
7. Tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovining yechilish kunida «Restart» xizmatini faollashtirib bo'lmaydi.
8. «Restart» xizmatidan sutkasiga faqat 1 marta (joriy sutkaning boshidan, 00:00 dan 23:59 gacha) foydalanish mumkin.

### **Eslatma**

E'tiboringiz uchun, smartfonlarning ko'pchiligi Internetga ulanganda o'rnatilgan dasturlardan (messenjerlar, ob-havo, yangiliklar va hokazo) uchinchi tomon trafiginı ishlatadi, shuningdek, ilovalar do'konlari (Google Play, App Store) bilan sinxronizatsiya hamda turli akkauntlarning (Google, Facebook, Telegram va hokazo) va analitik hisoblagichlar (Google, google-analytics.com, googletagmanager.com, gstatic.com, stats.g.doubleclick.net) beixtiyor sinxronizatsiyasi amalga oshishi mumkin. Ushbu trafik xizmat doirasida ajratilgan bepul trafik doirasiga kirmaydi va uning haqi tarif uchun Ucell Interneti qiymatiga ko'ra abonent tomonidan alohida to'lanadi yoki sotib olingan to'plamidan sarflanadi.

Tarmoqning qamrovi haqidagi ma'lumot taxminiy xarakterga ega bo'lib, tarmoq qamrovining aniq holati va axborot uzatish/qabul qilishning haqiqiy tezligi bir qator omillarga bog'liq: abonent qurilmasining turi va xususiyatlari, abonent joylashgan yerdagi radioto'lqin sharoitlari, relyef xususiyatlari va meteorologik shart-sharoitlar, ayni o'sha hududda bir vaqtning o'zida ishlayotgan qurilmali abonentlar soni.

### **Diqqat!**

- 1 Cheksiz yo'nalish doirasidagi internet-trafikning to'g'ri sarflanishi uchun, faqat rasmiy ilovalarni ishlatishni tavsiya etamiz: Facebook, Instagram, Telegram, WhatsApp va YouTube;

- 2 Smartfonning yoki boshqa qurilmalarning kirish nuqtasi orqali internetni tarqatishda faqat tarif rejasi doirasida taqdim etilgan asosiy internet-trafikni, yoki qo'shimcha xarid qilingan internet-to'plamdagi trafikni tarqatish mumkin bo'ladi. Tarif rejasi doirasida taqdim etiluvchi resurslar (internet-trafik) shartlari smartfondan internet-trafikni boshqa qurilmalarga tarqatishda amal qilmaydi. **Bunda:**
- 3 YouTube, Ijtimoiy tarmoqlarga va messenjerlarga proksi-server, VPN yoki uchinchi saytlar orqali kirishda, trafik tarif rejasi doirasida ajratilgan internet-trafik limitidan yoki barcha yo'nalishlar uchun taqdim etiladigan internet-to'plamdan sarflanadi, yoxud internet-trafik tarif rejasi shartlari bo'yicha Ucell-Internet narxiga muvofiq narxlanadi.  
Bunday hollarda resurslar uchun taqdim etiluvchi cheksiz internet-trafikdan foydalanib bo'lmaydi.
- 4 Messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlarning egalari ma'lum IP-manzillar va protokollar doirasida o'z xizmatlarini taqdim etishadi. Ucell aynan o'sha (ro'yxatga kiritilgan) doiradagi manzillar uchun trafik hajmini ajratadi. Messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlarning egalari IP-manzillarini yoki protokollarini o'zgartirganlari uchun mas'uliyatni Ucell o'z zimmasiga olmaydi, bu holda trafik tarif rejasidagi Ucell-Internet narxiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yo'nalishlar uchun taqdim etiladigan internet-to'plamdan sarflanadi.

*\* "TV Doimiy 120", "TV Doimiy 180" tarif rejalari uchun shartlar: Qo'shimcha resurslar uchun oylik internet-trafik – to'liq tezlikda 2 TB. To'liq tezlikda taqdim etilgan limit tugaganidam so'ng, internet tezligi 64 kb/soniyagacha pasayadi.*

*\*\* Texnik cheklanma – oyiga 45000 daqiqa.*